



Suitsid haqida konsepsiya, uning kelib chiqishi, ya'ni unga sabab bo'lувчи omillar va ularning oldini olish uchun amalga oshiriladigan ishlar.

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi:

G'ulomova Diyoraxon Axlidin qizi

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti talabasi:

Karimov Ozodbek

Annotatsiya: Xozirgi kunda dolzarb bo'layotgan yoshlar va kattalar o'rtasidagi suitsid, ya'ni o'z joniga qasd qilish muammosi ko'tarilmoqda. Kelajak yoshlar qo'lida lekin ular turli ta'sirlar iskanjasidadir. Quyidagi maqolada siz ana o'sha sabab va yechimlar bilan tanishhasiz.

Kalit so'zlar: Suitsid, jamiyat, shaxs, ijtimoiy muhit, oilaviy muammolar, globallashuv, taqlid.

Barchaga ma'lumki, barcha mamlakatlar jadallik bilan rivojlanmoqda ammo bir qancha global muammolar mavjud va xali hanuz o'z yechimini topmagan. Bulardan eng keng ommalashgan muammo sifatida suitsidni keltirish mumkin.

Suitsid-o'z joniga qasd qilish degan ma'noni anglatib, o'z joniga qasd qiluvchilar suitsidentlar nomi bilan ataladi. Bu holatni amalga oshiruvchilarning ko'pchiligi sog'lom ong egalaridir, ularda turli depressiya, oilaviy va moliyaviy muammolar, ruhiy va jismoniy holatlar natijasida shu jarayoni amalga oshiradilar.

Dunyoda har yili millionga yaqin odam o'zini o'ldiradi, 10-20 millionta xudkushlikka omadsiz harakat bo'ladi. Rossiyada har yili 60,000, AQShda taxminan 1,5 barobar ko'proq uchraydi. Yaponiyada 30,000 dan ziyod va Xitoyda 250,000 nafar kishi suitsid oqibatida vafot etadi.

Dunyoda har 40 soniyada bir kishi o‘z joniga qasd qiladi, yiliga jami 800 mingdan ortiq kishi o‘z hayotiga nuqta qo‘yadi.

Hujjatda ta’kidlanishicha, o‘n yillik tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu muammo dunyoning barcha mintaqalarida uchrashi va barcha yosh guruhlarida qayd etilishi aniqlangan.

Sayyoradagi o‘z joniga qasd qilishlarning uchdan ikki qismi past va o‘rtacha daromadli mamlakatlarda sodir bo‘ladi. Jahonda 15—29 yoshli yigit-qizlarning o‘limi sabablari ichida o‘z hayotiga qasd qilish ikkinchi o‘rinda turadi.

Bu sohada suitsidning asosiy omillari sifatida ruhiyatning buzilishi, spirtli ichimliklarni haddan tashqari ko‘p iste’mol qilish, moliyaviy muammolar, surunkali kasalliklar tilga olinadi.

Bundan tashqari, tibbiy xizmatlardan foydalanish va zarur yordamga ega bo‘lishdagi qiyinchiliklar, o‘zini o‘ldirish uchun kerakli vositalarni osongina qo‘lga kiritish imkoniyati, suitsid hollaridan shov-shuv keltirib chiqaradigan OAVlar ham suitsidni oshiradi. Suitsidlarning shakllanish kontseptsiyasi. Suitsidal axloqni tushuntiruvchi asosiy kontseptsiyalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: sotsiologik, psixopatologik va ijtimoiy-psixologik. Sotsiologik yondoshuv doirasida svyaz mejdu suitsidal axloq va ijtimoiy sharoitlar ortasidagi aloqa deklaratsiyalanadi. Bunga o‘xhash qarashlar asosida E.Dyurkgyeymning “anomiya” – jamiyatning qadriyatli-me’yoriy tizimidagi buzilish haqidagi ta’lim yotadi. Dyurkeym ta’kidlaydiki, jamiyatda o‘z-o‘zini o‘ldirish miqdori dunyo (qadriyatlar axloqiy me’yorlar)ni individual ko‘rishni belgilovchi ijtimoiy hayotning alohida faktlari kabi “jamoaviy tasavvurlar” aniqlaydi. Masalan, jamoaviy aloqa, jamiyatning jipslashganligi bu ma’noda o‘z-o‘zini o‘ldirishni to’xtatadi. qachonki jamiyatning jipsligi zaiflashsa, shaxs ijtimoiy hayotdan chekinadi va umumiylar farovonlikka o‘zining shaxsiy maqsadlarini qo‘yishga intiladi, bu esa hayotdan ketish qaroriga sabab bo‘lishi mumkin. mavjudligi suitsid yuzaga kelishining xavfini oshiradi. Bundan tashqari, ota-onalarning shaxsiy xususiyatlari, masalan, ruhiy azoblanganlik suitsidal dinamika omili bo‘lib chiqishi mumkin.



Boshqa, psixopatologik yondoshuv suitsidni o'tkir yoki surunkali psixik buzilish sifatida ko'rib chiqadi. Suitsidal axloqqa birmuncha o'xshash nuqtai nazarni chegaradagi holat kabi qarash ifodalaydi. A.Ye.Lichko yozadi: "Osmirlarda suitsidal axloq – bu asosan cheklangan chegara yonidagi psixiatriya muammosi, ya'ni xarakter aktsentuatsiyasi fonida reaktiv psixopatik va nopsixotik holatlarni organish soqasidir". Muallifning kuzatishi bo'yicha, faqat 5 foizgina suitsid va urinish psixozga tushadi, aqni vaqtda psixopatiyaga 20-30 foizi kiradi, qolganlari esa o'smir kirizidir.

Umuman olganda, statistik jihatdan suitsidal axloq va aniq psixik buzilish o`rtasidagi yetarlicha aloqa aniqlanmagan. Sabablar. - dinsizlik; - ma'rifatsizlik;

- to'qchilik;- yo'qchilik;- shahvoniy, nafsoniy sevgi;- o'z joniga qasd qilishni muammoning yechimi sifatida ko'rish;

- o'limning haqiqati, qabr azobi, oxirat, qayta tirilish, qiyomat va do'zaxdagi azob-uqubatlardan bexabarlik;

- ruhiy xastalik.

O'zbekistonda aholi suitsidiga quyidagilar sabab bo'lyapti:

-Ruhiy kasallik, asabiy xarakter, xulq-atvorida salbiylik alomatlari yuqori bo'lishi, ruhiyatdagi o'zgarishlar.

-Oilaviy janjallar, xususan, er-xotin, qaynona-qaynotalar, arning qavm-qarindoshlari yoki o'zining boshqa birovlar bilan janjallahшиб qolishi.

- Moddiy-maishiy jihatdan kam ta'minlanganlik.

- Giyohvandlikka ruju qo'yish, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'ya olmaslik.

-Rashk tufayli.

-Ishxonadagi kelishmovchiliklar, boshqa birovning shaxsga tegadigan darajada haqorat qilishi.

- Boshqalar (sevgani bilan janjallahшиб qolishi, o'qishga kira olmasligi, farzand kasalligi yoki yo'qligi, pulini yo'qotish, boshqalar bilan ziddiyat.

Shu bilan birgalikda, shaxs suitsidal axloqining bir necha xatar omillarini ajratish mumkin: suitsidning avvalgi urinishlari (ushbu odamning); suitsidning oilaviy tarixi;

- krizisli vaziyat (tuzalmaydigan kasallik, yaqin kishisining o`limi, ishsizlik va moliyaviy muammolar, ajrashish);
- oilaviy omil (ota-onalarning ruhiy azoblanish holati, bolalar jarohati, surunkali janjallar, uyg'unlashmagan tarbiya);
- hissiy buzilishlar (dastavval ruhiy azoblanish holati);
- psixik kasalliliklar (piyonistalik, giyohvandlik, shizofryeniya);
- ijtimoiy modellashtirish (OAV dagi suitsid namoyishi, ularning adabiy asarlardagi surati).

Bundan tashqari, xatarning quyidagi guruhlari ajratiladi: yoshlar, keksa odamlar, jinsiy kamchilik, harbiy xizmatchilar, urush va urush nizolari shifokorlar va ba'zi bir boshqa kasb vakillari. Shunday qilib, suitsidal axloq ichki va tashqi planda bir vaqtida amalga oshiriladi. Suitsidal harakat suitsidal urinish va tugallangan suitsiddan iborat. Suitsidal urinish – bu o'lim bilan tugamaydigan, o'zini hayotdan mahrum qilish vositalarining maqsadga yo'naltirilgan operatsiyasi. Urinish o'zini yoki boshqalarni hayotdan mahrum qilishga yo'naltirilgan qaytishli va qaytarilmaydigan bo'lisi mumkin. Tugallangan suitsid – letal natija bilan yakunlangan harakat. Suitsidal ko'rinish o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) passiv suitsidal fikrlar (tasavvur, kechinmalar); 2) suitsidal g'oyalar; 3) suitsidal maqsad. Passiv suitsidal fikrlar o'z o'limi mavzusidagi tasavvurlar, fantaziyalar bilan xarakterlanadi (biroq oz ixtiyoridagi harakat sifatida o'zini hayotdan mahrum qilish mavzusida emas), masalan: "o'lib qolsam yaxshi bo'lar edi", "uxlasangu, qaytib uyg'onmasang". Suitsidal axloqning tug'ilishiga, shuningdek, xavotirli va ruhiy azoblanish holati ham ko'maklashadi. Bolalarda ruhiy azoblanish holatining belgilari quyidagilar bo'lisi mumkin: qayg'u, bolalarga xos bo'limgan kuchsizlik, uyqu va ishtahaning buzilishi, omadsizlikdan qo'rqish va o'qishga qiziqishning susayishi, to'laqonli emaslik va inkor etilganlik tuyg'usi, o'z-o'zini o'ta tanqid qilish, odamovilik, xavotirlilik, tajovuzkorlik va frustratsiyaga past chidamlilik. Biz o'smir yoshida suitsidal axloqning birmuncha boshqacha kartinasini kuzatamiz. O'smirlar orasida o'z-o'zini o'ldirishga urinish bolalarga qaraganda ahamiyatli tarzda ko'p uchraydi, shu bilan birga ularning kamchiligidagina o'z maqsadlariga erishadilar. Tugallangan suitsidlarning soni

barcha suitsidal harakatlarning 1 foizidan oshmaydi. Bu yoshda suitsidal axloq namoyishkorona, shu jumladan, shantaj xarakteriga ega. Xarqanday holatda ham suitsid tushunchasini va uning oqibatlarini sog'lom ong egalari tushunmog'i kerak.

Oiladagi muhit sababli farzandlarni o'z joniga qasd qilishi real va daxshat sababi bola dastlab tarbiyani oiladan oladi. Avvalo oilalardagi muhitni ijobiylikka o'zgartirmog'imiz kerak shu bilan bir qatorda ota-onaning bir biriga munosabati,yetishmovchilik,kelishmovchilik bolani oldida xal qilinmagani ma'qul..Kimdir o'z joniga qasd qilishini sezgan inson uni tinglashi kerak ularga ularni tinglaydigan inson kerak.Suitsiddan keyingi holat qanday yakun topishi barchaga noma'lum, shunday ekan uning oldini olgan ma'qul.

Xulosa: Insonlarni hayotini saqlab qolish uchun ularni tinglamog'imiz kerak.Agar o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan yoki shunga moyilligi bo'lgan insonni tanisangiz unga hayotini saqlab qolishida yordam berishingiz mumkin.Buning uchun uni tinglang. Suitsidni amalga oshirmoqchi bo'lganlarda asosan "Men xechkimga kerak emasman", "meni xechkim eshitmaydi" degan tushuncha bo'ladi.

Insonlarni tinglab ular mavjud bo'lgan holatni bartaraf etamiz. Maktab psixologlari,sinf rahbarlari bunday shaxsga be'tibor bo'lmasligi kerak. O'ylaymizki bu muammo kunlar kelib o'z yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oila psixologiyasi, "Sharq". Nashriyot-Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. Toshkent 2008y
2. D. Abduvahobova,Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi
3. M.Otajonov, D.Soliyeva Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi, Qo'qon 2020y.
4. www.ziyonet.com.